O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 81’42 : 81’22 : 81-115(045)

Nargiza MAVLANOVA,
O‘qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: mavlanova515@gmail.com

QDU professori, N.Yo‘ldosheva taqrizi asosida

INTERNET-DISKURSDA EMOJILARNING PRAGMATIK SALOHIYATI: ILLOKUTIV VA PERLOKUTIV ASPEKTLARNING QIYOSIY TAHLILI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutqiy aktlar nazariyasi doirasida zamonaviy internet-diskursda emojilarning pragmatik salohiyati o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida emojilarning illokutiv hamda perlokutiv funksiyalarini qiyosiy o‘rganishdan iborat. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlar izohlari, messenjerlardagi yozishmalar va mikoblog postlarini o‘z ichiga olgan 1200 ta kommunikativ birlikdan iborat korpus shakllantirildi. Tahlil jarayonida kontekstual-pragmatik tahlil, rechli aktlar tasnifi va statistik usullardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda emojilar ekspresiv va direktiv nutqiy aktlarni kuchaytirish, illokutiv kuchni modulyatsiya qilish hamda muloqotda xushmuomalalikni ta’minlash vositasi sifatida faol ishlatiladi. Ingliz tilidagi diskursda emojilar ko‘proq kinoya va fatik vazifani bajarsa, o‘zbek tilidagi muloqotda hurmat, samimiyat va hissiy yaqinlikni ifodalaydi. Tadqiqot emojilarning nafaqat paralingvistik, balki mustaqil pragmatik belgi ekanligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: emoji, internet-diskurs, pragmatika, illokutiv akt, perlokutiv akt, nutqiy aktlar nazariyasi, qiyosiy tahlil, raqamli kommunikatsiya.

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЭМОДЗИ В ИНТЕРНЕТ-ДИСКУРСЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИЛЛОКУТИВНЫХ И ПЕРЛОКУТИВНЫХ АСПЕКТОВ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО

Аннотация

В данной статье в рамках теории речевых актов исследуется прагматический потенциал эмодзи в современном интернет-дискурсе. Основная цель исследования заключается в сопоставительном изучении иллокутивных и перлокутивных функций эмодзи на материале английского и узбекского языков. Для проведения анализа был сформирован корпус из 1200 коммуникативных единиц, включающий комментарии в социальных сетях, переписку в мессенджерах и публикации микроблогов. В ходе работы применялись контекстуально-прагматический анализ, классификация речевых актов и статистические методы. Полученные результаты показывают, что в обоих языках эмодзи активно используются как средство усиления экспрессивных и директивных речевых актов, модуляции иллокутивной силы высказывания и обеспечения вежливости в общении. При этом в англоязычном дискурсе эмодзи чаще выполняют функцию иронии и фатики, тогда как в узбекоязычном дискурсе они выражают уважение, искренность и эмоциональную близость. Исследование подтверждает статус эмодзи не только как паралингвистического, но и как самостоятельного прагматического знака.

Ключевые слова: эмодзи, интернет-дискурс, прагматика, иллокутивный акт, перлокутивный акт, теория речевых актов, сопоставительный анализ, цифровая коммуникация.

PRAGMATIC POTENTIAL OF EMOJIS IN INTERNET DISCOURSE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ILLOCUTIONARY AND PERLOCUTIONARY ASPECTS (BASED ON ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE MATERIALS)

Annotation

This article examines the pragmatic potential of emojis in contemporary internet discourse within the framework of speech act theory. The main objective of the study is a comparative analysis of the illocutionary and perlocutionary functions of emojis based on materials from the English and Uzbek languages. To achieve this, a comprehensive corpus comprising 1,200 communicative units—including social media comments, messenger chats, and microblog posts in both languages—was compiled. The analysis utilized context-pragmatic methods, speech act classification, and frequency-statistical tools. The results demonstrate that in both languages, emojis are actively employed as a means to intensify expressive and directive speech acts, modulate the illocutionary force of utterances, and ensure politeness in communication. Furthermore, while emojis in English-language discourse frequently perform ironic and phatic functions, in Uzbek-language discourse they predominantly express respect, sincerity, and emotional closeness. The study confirms the status of emojis as independent pragmatic signs.

Keywords: emoji, internet discourse, pragmatics, illocutionary act, perlocutionary act, speech act theory, comparative analysis, digital communication.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson muloqotini o‘zgartirdi va yozma kommunikatsiyaga yangi semiotik vositalarni olib kirdi. Intonatsiya, mimika va imo-ishoralardan mahrum matnli muloqot ushbu paralingvistik ma’lumotlarni qoplash zaruriyatini yuzaga keltirdi va emojilarning keng tarqalishiga turtki berdi. Bugun emojilar bezak vositasidan mustaqil pragmatik birliklarga aylandi, shu bois ularning kommunikativ-pragmatik salohiyatini o‘rganish dolzarbdir.

Emojilar so‘zlovchining illokutiv kuchini ifodalashda va adresatga perlokutiv samara ko‘rsatishda ishtirok etadi. Biroq bu belgilar turli lingvomadaniy muhitlarda bir xil vazifani bajaradimi degan savol yetarlicha o‘rganilmagan. Ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosidagi qiyosiy

tadqiqotlar deyarli uchramaydi, bu esa mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Emojilar pragmatikasi xorijiy tilshunoslikda faol tadqiq etilmoqda. S. Herring va A. Dainas emojilarni grafik pragmatik markerlar sifatida tasniflab, fatik va modal vazifalarini aniqlagan. M. Danesi ularning ko‘p ma’noliligi va kontekstga bog‘liqligini ta’kidlagan. T. Dresner va S. Herring emojilarning illokutiv kuchni modulyatsiya qilishdagi rolini asoslaganlar. Nutqiy aktlar nazariyasining asoslari J. Ostin va J. Serl ishlarida yotadi. O‘zbek tilshunosligida esa bunday qiyosiy tadqiqotlar hali shakllanmagan.

Tadqiqotning maqsadi internet-diskursda emojilarning pragmatik salohiyatini illokutiv va perlokutiv aspektlar bo‘yicha ikki til materiali asosida qiyosiy tahlil qilishdir.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot obyekti ingliz va o‘zbek tillaridagi internet-diskursda qo‘llanilgan emojilar, predmeti esa ularning illokutiv va perlokutiv vazifalaridir. Empirik baza sifatida 2022–2024 yillarda to‘plangan korpus shakllantirildi: har bir til bo‘yicha 600 tadan, jami 1200 ta kommunikativ birlik. Manbalar – ochiq ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, X), Telegram izohlari va anonim messenjer yozishmalari bo‘lib, shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirildi.

Kontekstual-pragmatik tahlil orqali har bir emoji o‘z kontekstida ko‘rib chiqildi. Serl klassifikatsiyasiga asosan emojilar ekspressiv, direktiv, deklarativ, reprezentativ va komissiv aktlar bo‘yicha guruhlandi. Chastotali-statistik usul qo‘llanish ko‘rsatkichlarini foizda ifodaladi, qiyosiy metod ikki til materialini solishtirish imkonini berdi.

Illokutiv aspektni baholashda emojining niyatni kuchaytirish yoki yumshatish darajasi, perlokutiv aspektda esa adresatning javob reaktsiyasi, hissiy belgilar, suhbat davomiyligi va ohang tahlil qilindi.

Natijalar. Korpus tahlili emojilarning har ikki tilda nutqiy aktlar bilan uzviy bog‘liq qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Ekspressiv nutqiy aktlar bilan qo‘llanilgan emojilar eng katta ulushni egalladi, bu ularning hissiy ifoda vositasi sifatidagi birlamchi vazifasini tasdiqlaydi. Ingliz tilida ironik va fatik qo‘llanishlar, o‘zbek tilida esa hurmat va samimiylikni ifodalovchi qo‘llanishlar yuqori chastotaga ega bo‘ldi.

Birinchi jadvalda emojilarning nutqiy akt turlariga ko‘ra taqsimlanishi qiyoslangan. Ekspressiv aktlar har ikki tilda eng ko‘p uchraydi, ammo o‘zbek tilida ulushi yuqori. Direktiv aktlarda emojilar iltimos yoki buyruqni yumshatishga xizmat qiladi; komissiv va deklarativ aktlarda qo‘llanish kam.

Perlokutiv samara tahlili emoji bilan mustahkamlangan xabarlar ko‘proq javob reaktsiyasini keltirib chiqarganini ko‘rsatdi. Ingliz tilida emojili xabarlarga javob darajasi yuqori bo‘lsa-da, o‘zbek tilida bunday xabarlar ko‘proq ijobiy va samimiy ohangdagi javoblarni yuzaga keltirgan (ikkinchi jadval).

Diagrammada eng ko‘p qo‘llaniladigan beshta pragmatik vazifaning chastotasi aks ettirilgan: o‘zbek tilida hurmat-etiket, ingliz tilida ironiya ustun. Natijalar emojilarning illokutiv kuchni modulyatsiya qilish va perlokutiv samara hosil qilish qobiliyatini hamda uning lingvomadaniy omillarga bog‘liqligini isbotladi.

1-jadval. Emojilarning nutqiy akt turlariga ko‘ra taqsimlanishi (foizda)


Nutqiy akt turi	Ingliz tili (%)	O‘zbek tili (%)
Ekspressiv	46.5	54.2
Direktiv	21.3	19.8
Reprezentativ	18.4	15.1
Komissiv	8.6	7.3
Deklarativ	5.2	3.6

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan korpus tahlili asosida

2-jadval. Emojilarning perlokutiv ta’sir ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Ingliz tili	O‘zbek tili
Emojili xabarga javob darajasi (%)	71.4	68.9
Ijobiy ohangdagi javoblar ulushi (%)	58.2	73.6
O‘rtacha suhbat davomiyligi (xabar)	6.8	7.5

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan korpus tahlili asosida



1-rasm. Emojilarning asosiy pragmatik vazifalari bo‘yicha chastotasi Manba: Ingliz tili materiali asosida

Muhokama. Natijalar emojilarning mustaqil pragmatik birlik maqomiga ega ekanligi haqidagi xorijiy olimlar fikrini tasdiqlaydi. S. Herring va A. Dainasning emojilar fatik va modal vazifalarni bajarishi haqidagi xulosalari ingliz tilida fatik qo‘llanishlar yuqoriligi borasidagi kuzatuvlarimiz bilan mos keladi. T. Dresner va S. Herring asoslagan emojilarning illokutiv kuchni modulyatsiya qilishdagi roli direktiv aktlardagi muloyimlik strategiyasida tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqotimiz M. Danesi ta’kidlagan universallik g‘oyasiga tuzatish kiritadi: emojilarning pragmatik vazifalari madaniyatdan mustaqil emas, balki muayyan lingvomadaniy qadriyatlarni aks ettiradi. O‘zbek diskursida hurmat va samimiylik emojilarining ustunligi muloqot madaniyatidagi yuksak kontekstlilik va ijtimoiy ierarxiya bilan, ingliz diskursidagi ironiya esa individualistik kommunikatsiya madaniyati bilan izohlanadi.

Bu farqlar G. Hofstedening madaniy o‘lchamlar nazariyasi va E. Hollning kontekstlilik konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Yuqori kontekstli o‘zbek madaniyatida emojilar emotsional yaqinlikni ta’kidlasa, past kontekstli ingliz madaniyatida xabar mazmunini aniqlashtiradi. Natijalar J. Serl klassifikatsiyasini grafik belgilarga ham tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatdi. Tadqiqot cheklovi korpus hajmi va platformalar sonining chegaralanganligidadir.

Xulosa. Tadqiqot emojilarning internet-diskursda yuksak pragmatik salohiyatga ega, illokutiv kuchni shakllantirish va perlokutiv samara hosil qilish qobiliyatiga

ega mustaqil pragmatik belgilar ekanligini isbotladi. Qiyosiy tahlil funksional diapazon umumiy bo‘lsa-da, qo‘llanish chastotasi va ustuvor vazifalar lingvomadaniy omillarga bog‘liq farqlanishini ko‘rsatdi: o‘zbek diskursida hurmat, samimiylik va emotsional yaqinlik, ingliz diskursida esa ironiya va fatik aloqa ustunlik qiladi.

Natijalar qiyosiy tilshunoslik, pragmatika va raqamli kommunikatsiya nazariyasini boyitadi. Amaliy jihatdan ulardan chet tillarni o‘qitishda, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda, mashinaviy tarjima va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin. Kelgusi tadqiqotlar emojilar ketma-ketligining sintaktik-pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 300 б.
2. Austin J. L. How to Do Things with Words. - Oxford: Oxford University Press, 1962. - 167 p.
3. Crystal D. Language and the Internet. 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
4. Danesi M. The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. - London: Bloomsbury, 2017. - 208 p.
5. Dresner E., Herring S. C. Functions of the Nonverbal in CMC: Emoticons and Illocutionary Force // Communication Theory. - 2010. - Vol. 20, No. 3 - P. 249–268.
6. Ge J., Herring S. C. Communicative Functions of Emoji Sequences on Sina Weibo // First Monday. - 2018. - Vol. 23, No. 11.
7. Hall E. T. Beyond Culture. - New York: Anchor Books, 1976. - 298 p.
8. Herring S. C., Dainas A. R. Nice Picture Comment! Graphicons in Facebook Comment Threads // Proceedings of the 50th Hawaii International Conference on System Sciences. - 2017. - P. 2185–2194.
9. Hofstede G. Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. 2nd ed. - Thousand Oaks: Sage, 2001. - 596 p.
10. Kaye L. K., Malone S. A., Wall H. J. Emojis: Insights, Affordances, and Possibilities for Psychological Science // Trends in Cognitive Sciences. - 2017. - Vol. 21, No. 2. - P. 66 - 68.
11. Pavalanathan U., Eisenstein J. Emoticons vs. Emojis on Twitter: A Causal Inference Approach // arXiv preprint. - 2015.
12. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 1969.